

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/5.05.2023.B/QX.01.17 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NURULLAYEV AZAMXON KOMILJON O'G'LI

**TOG' VA TOG'OLDI HUDUDI EROZIYAGA UCHRAGAN TUPROQLAR
HOLATINI GAT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BAHOLASH
(Boysun tumani tuproqlari misolida)**

03.00.13 –Tuproqshunoslik

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on biological sciences**

Nurullayev Azamxon Komiljon o‘g‘li

Tog‘ va tog‘oldi hududi eroziyaga uchragan tuproqlar holatini GAT
texnologiyalari asosida baholash (Boysun tumani tuproqlari misolida)..... 3

Нуруллаев Азамхон Комилжон угли

Оценка состояния эродированных почв горных и предгорных
территорий на основе ГИС технологий (на примере почв Байсунского
района)..... 21

Nurullaev Azamkhon Komiljon ugli

Assessment of the state of eroded soils in mountain and foothill areas based
on GIS technologies (in the example of the soils Baysun district) 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/5.05.2023.B/QX.01.17 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NURULLAYEV AZAMXON KOMILJON O'G'LI

**TOG' VA TOG'OLDI HUDUDI EROZIYAGA UCHRAGAN TUPROQLAR
HOLATINI GAT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BAHOLASH
(Boysun tumani tuproqlari misolida)**

03.00.13 –Tuproqshunoslik

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/V1070 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash veb-sahifasida (nauka@nuu.uz) va «ZiyoNet.» Axborot-ta'lim portalida (<http://www.ziynet.uz>) joylashtirilgan


Ilmiy rahbar:	Djalilova Gulnora Tulkunovna biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponetlar:	Maksud Ismoilovich Ruzmetov qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor Xaqberdiyev Obid Eshniyozovich biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «20» 05 soat 10:30dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi 4-uy, O'zbekiston Milliy universitetining Biologiya fakulteti binosi, 4-qavat, 403-xona. Tel.:(+99871) 246-67-72, e-mail: nauka@nuu.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (35 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy, Tel.: +99871 246-67-72).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «29» 04 kuni tarqatildi.
(2024 yil «29» 04 dagi 2 raqamli restr bayonnomasi)




Jabbarov Z.A.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor


Maxkamova D.Yu.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, b.f.d., dotsent


Nabiyeva G.M.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., dotsent

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda umumsayyoraviy iqlim o'zgarish sharoitida tuproq qoplamiga tabiiy va antropogen ta'sirlarning kuchayishi oqibatida degradatsiya, jumladan tuproq eroziyasining turlari hamda oqibatlarining jadalroq rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Xalqaro FAO tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2050 yilga borib, tuproq eroziyasi qishloq xo'jaligi ekinlarini ishlab chiqarish hajmini 10 % qisqartirishi va 75 mlrd tonna tuproqni yo'qolishiga olib kelishi mumkin¹. Ushbu muammolarni kelib chiqishi tabiiy sharoitlar (iqlim, geomorfologiya, tuproq hosil qiluvchi jinslar) va antropogen omillarning ta'siriga bog'liqdir. Eroziya xavfi tuproqning potensial yuvilishining hajmi bilan baholanadi. Geomorfologik omil ko'p jihatdan eroziya jadalliligini belgilaydi, chunki suv oqimlarining tezligi va kuchi, ularning ma'lum hududlarda konsentratsiyasi, relyefning notekislik sharoitlari bilan bog'liq. Iqlim omili yog'ingarchilik miqdori va ularning tabiati orqali eroziya jarayonlariga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli tuproqlarning eroziya jarayonlariga moyilligini kuzatish va baholashning yangi usullarini izlash hamda joriy etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Dunyoda tuproqlarning holati va xossa-xususiyatlarini aniqlash, tuproqlarni degradatsiya jarayonlarini baholash, unumdorligini oshirish va boshqarishda zamonaviy geoaxborot tizimlari texnologiyalaridan foydalanishda samarador va tezkor axborot tizimlarini yaratish, tuproqlarni raqamli xaritalashga doir ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanib eroziyaga uchragan yerlarni aniqlash va baholash, ushbu jarayonlarga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini hisobga olgan holda ilmiy tadqiqotlar olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda eroziyaga uchragan tuproqlarni aniqlash va baholashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, eroziyaga uchragan yerlarning holatini kuzatish, eroziya jarayonlarini jadalligini baholash va eroziyaga uchragan yerlarni muhofaza qilishga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-sonli "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarorida "...tuproq axborot tizimlari ma'lumotlar bazasini hamda uning asosida tuproq eroziyasi bo'yicha elektron monitoring tizimini yaratish"² ga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu sababli, tog' va tog'oldi hududi tuproqlarining eroziyaga uchraganlik holatini eroziyani vujudga keltiruvchi omillarini hisobga olgan holda geografik axborot texnologiyalari (GAT) imkoniyatlaridan foydalanib yaratilgan kartografik asoslari va sun'iy yomg'irlatish

¹ <https://www.fao.org/global-soil-partnership>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-son "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

modeli asosida eroziyaga moyil hudud maydonlarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi³ Farmoni, 2020 yil 28 apreldagi PQ-4699-sonli "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi⁴, 2021 yil 17 fevraldagi PQ-4996-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi⁵, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 dekabrda 794-sonli "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi⁶ Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Suv eroziya jarayonini aniqlash, baholashga, eroziya jarayonlari ta'sirida tuproqlarning xossa-xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar S.Issaka, J.Laflen, L.Lane, R.Foster, B.Defersha, H.Wischmeir, D.Smith, S.Sobolev, M.Zaslavskiy, V.Rojkov, G.Shvebs, O'zbekistonlik olimlardan esa V.Gussak, X.Maxsudov, L.Tursunov, M.Faxrutdinova, L.Gafurova, G.Mirxaydarova, G.Nabiyeva, G.Djalilova, M.Tashkuziyev, N.Shadiyeva, D.Qodirova, G.Sodiqova tomonidan olib borilgan. Biroq, tog' va tog'oldi notekis relyef sharoitida tarqalgan tuproqlarning kartografik va sun'iy yomg'irlatish modellar yordamida aniqlash va baholashga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik kafedrasining tematik rejasidagi "O'zbekiston tuproqlari genezisi, geografiyasi, evolyutsiyasi, agromeliorativ xossalari, uni tiklash, saqlash unumdorligini oshirish yo'llari va muhofazalash" bosh ilmiy mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tog' va tog'oldi hududi tuproqlarining eroziyaga uchraganlik holatini eroziyani vujudga keltiruvchi tabiiy omillarini hisobga olgan holda modellar asosida baholash (Boysun tumani tuproqlari misolida) dan iborat.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktyabdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28-apreldagi PQ-4699-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17-fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

⁶ Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 dekabrda 794-sonli "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

Tadqiqotning vazifalari: Tadqiqot hududining o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda tabiiy-iqlim sharoitlarini (geologik-geomorfologik tuzilishi, iqlimi, relyefi, o'simlik dunyosi) tahlil qilish;

zamonaviy GPS qurilmasi yordamida tadqiqot hududi tuproqlarini vertikal mintaqalanish qonuniyatiga ko'ra tarqalish areallari va chegaralarining koordinatlarini aniqlash;

tadqiqot hududida vertikal mintaqalanish qonuniyatiga ko'ra tarqalgan tuproqlarining xossa-xususiyatlariga eroziya jarayonlari ta'sirini aniqlash;

olingan natijalar asosida eroziya jarayonlarining shakllanishiga sabab bo'luvchi omillar va eroziyaga uchragan tuproqlarning xossa-xususiyatlarini qamrab oluvchi ma'lumotlar bazasi yaratish;

GAT asosida tadqiqot hududining relyefining 3D modelini yaratish va relyefning morfometrik ko'rsatkichlarini (qiyalik nishabligi, ekspozitsiyasi) aniqlash hamda eroziya jarayonlarini baholash;

tadqiqot hududi tuproqlarining eroziyalanish darajasiga ko'ra baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda ilmiy takliflar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Surxondaryo viloyati Boysun tumani tog' va tog'oldi hududlarida tarqalgan to'q tusli bo'z, tog' jigarrang (karbonatli, tipik va ishqorsizlangan) tuproqlari olingan.

Tadqiqot predmeti tuproq eroziyasi, ma'lumotlar bazasi, suv eroziyasining geoaxborot tahlili natijasida yaratilgan mavzuli kartografik modellar, sun'iy yomg'irlatish modeli tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tuproq tahlillari "Руководство по химическому анализу почв" qo'llanmalari bo'yicha, olingan natijalarning statistik tahlili Microsoft Excel ning XLSTAT interfeysida bajarildi. Kartografik modellar GAT ning ArcGIS 10.8, Surfer 16 dasturlari va ArcCatalog 10.8, ArcMap 10.8, ArcScene 10.8 ilovalari, piksellarni klassifikatsiyalashda ERDAS, 3D Analyst (Surface/Create TIN from Features), Surface/Interpolate Grid dasturiy ta'minotlardan foydalanilgan. Tuproq eroziyasi rivojlanishiga qiyalik nishabligi va yog'ingarchilik miqdori jadalligi ta'sirini laboratoriya sharoitida sun'iy yomg'irlatish modelida o'rganilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tadqiqot hududi SRTM tasvirlarini qayta ishlash tuproqlarining vertikal mintaqalanish qonuniyatiga ko'ra tarqalish areallari va chegaralarini aniqlashda samarali ekanligi isbotlangan;

GATda yaratilgan relyefning morfometrik ko'rsatkichlari aks ettirilgan kartografik modellar notekis relyef sharoitida eroziya jarayonlarini baholashda qiyalik nishabligi va ekspozitsiyasi bo'yicha aniq ma'lumotlar berishi isbotlangan;

ilk bor yaratilgan sun'iy yomg'irlatish modeli notekis relyef sharoitida eroziya jarayonlarini baholashda turli jadallikdagi, miqdordagi yog'in va qiyalik nishabligi orasidagi bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlashda real ma'lumotlar berishi ilmiy asoslangan;

GATda yaratilgan kartografik modellar va sun'iy yomg'irlatish modeli natijalari asosida tuproqlarning eroziyaga uchrashi hamda xavflilik darajasiga ko'ra baholash mezonlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

GAT asosida relyefning morfometrik ko'rsatkichlarini tavsiflovchi raqamli relyef modeli va mavzuli kartografik modellar yaratilgan;

tuproq eroziyasi rivojlanishiga qiyalik nishabligi va yog'ingarchilik miqdori jadalligi ta'sirini o'rganish maqsadida sun'iy yomg'irlatish modeli yaratilgan;

tadqiqot natijalari asosida, o'rganilgan Boysun tumani tog' va tog'oldi hududi tuproqlarining hozirgi holatini tavsiflovchi ma'lumotlar bazasi yaratilgan va O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligida ro'yxatdan o'tkazilib, mualliflik guvohnomasi olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amaliyotda qo'llanilgan usullar va yondashuvlar, ular doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlarning rasmiy manbalardan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarini boshqa mualliflarning o'xshash yo'nalishdagi natijalari bilan qiyoslangani, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'rganilgan hudud tuproqlarida kechayotgan eroziya jarayonlarini aniqlash va baholashda zamonaviy axborot texnologiyalari va modellardan foydalanish ushbu vazifalarni bajarishda aniq axborotlar bilan ta'minlashi izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tuproqlarni eroziya jarayonlarini baholash, ularni muhofaza qilishda foydalaniladigan bir qator yaratilgan ma'lumotlar bazasi, mavzuli kartografik modellar, suniy yomg'irlatish modeli asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Tog' va tog'oldi hududi eroziyaga uchragan tuproqlar holatini zamonaviy yondashuvlar asosida baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Surxondaryo viloyati Boysun tumani relyefining morfometrik xususiyatlarini tavsiflovchi uch o'lchamli TIN modeli va u asosida yaratilgan kartografik modellar Boysun tumani Qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 27 noyabrdagi 04/29-05/6088-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, hududning tog' va tog'oldi tuproqlarida kechuvchi eroziya jarayonlarini aniqlash, eroziyaga moyil hududlarni baholash, eroziyaga uchragan tuproqlarning holatini yaxshilash va muhofazalash, tuproq eroziyasi bo'yicha elektron monitoring tizimini yaratish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan;

GNSS (Trimble) uskunasi yordamida belgilangan tayanch nuqtalardagi tuproq kesmalarining morfogenetik xususiyatlari keltirilgan atributiv ma'lumotlar bazasi Boysun tumani Qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 27 noyabrdagi 04/29-05/6088-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tuproqlar klassifikatsiyasi va tasnifini mukammallashtirish, geografik qonuniyatlarga aniqlik kiritish, geoaxborot tizimlari asosida qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilishning takomillashgan mexanizmini ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan;

"Boysun tumani tog'li hududlarda tuproq eroziyasini keltirib chiqaruvchi omillarning diagnostik belgilari" nomli dasturiy ta'minot Boysun tumani Qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq

xo'jaligi vazirligining 2023 yil 27 noyabrdagi 04/29-05/6088-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur dasturiy ta'minot orqali tuproq axborot tizimlari ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkonini bergan;

Yaratilgan "Sun'iy yomg'irliq sharoitida tuproq yuvilishini aniqlash modeli" laboratoriya uskunasi Boysun tumani Qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 27 noyabrdagi 04/29-05/6088-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur laboratoriya uskunasi yordamida talabalar, ilmiy xodimlar va turli yerdan foydalanuvchilar uchun tuproq eroziyasi jarayonlari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari asosida jami 7 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy maqola va tezislari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 114 sahifani tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Muammoni o'rganilganlik darajasi (Adabiyotlar sharhi)**" deb nomlangan birinchi bobi tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda 2 qismga bo'lingan bo'lib, bu bobda mavzu doirasida xorij va respublikada olib borilgan ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Shuningdek, eroziya jarayonlarini keltirib chiqaruvchi va jadalligiga ta'sir etuvchi tabiiy iqlim sharoiti, qiyaliklarning shakli, uzunligi, nishabligi, ekspozitsiyasi kabi kompleks omillarni o'rganishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanib, tog' va tog'oldi hududi eroziyaga uchragan tuproqlar holatini eroziyani keltiruvchi tabiiy omillarni hisobga olgan holda modellar asosida baholash lozimligi, tadqiqot hududida eroziyalanish xavfi bor yerlarni va darajalarini aniqlash va baholashda klassik usullardan ko'ra, yuqori aniqlikdagi tezkor ma'lumotlarni olish imkonini beruchi zamonaviy GAT texnologiyalari avzalligi to'g'risida xulosalar qilingan.

"**Tadqiqot hududining o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlariga ega tabiiy – iqlim sharoiti**" deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida tadqiqot

obyektining fizik geografik joylashuvi, geologik, geomorfologik, gidrogeologik, iqlim sharoiti va o'simlik dunyosi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot obyekti vertikal mintaqalanish qonuniyatlariga bo'ysungan holda pastdan yuqoriga qarab, relyefning morfometrik sharoitlariga, iqlim ko'rsatkichlariga mos ravishda tuproq tiplari va o'simlik dunyosining o'zgarishi atroflicha yoritilgan.

Dissertatsiyaning «Vertikal mintaqalanish qonuniyatiga mos ravishda tadqiqot obyekti tuproqlari xossa-xususiyatlariga eroziya jarayonlarining ta'siri» deb nomlangan uchinchi bobida eroziya jarayonlari tuproqlarning morfologik xususiyatlari, mexanik tarkibi va ayrim kimyoviy xossalari ta'sirlarini o'rganishga doir tadqiqot natijalari keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, hudud tuproqlari mexanik tarkibiga eroziya jarayonlarining ta'siri kuzatilib, ayniqsa tuproqlarning ustki qatlamlari eroziyalanish hisobiga, eroziyalanmagan tuproqlarga nisbatan o'rtacha va kuchli darajalarda eroziyalangan tuproqlarda fizik loy fraksiyalari miqdorining kamayganligi va aksincha, fizik qum miqdorining ortishi hisobiga yuqorigi qatlamlarda mexanik tarkibning yengillashishi kuzatilgan. Shunga ko'ra, to'q tusli bo'z tuproqlar mintaqasi suv ayirg'ich qismlarida eroziya jarayonlariga uchrash ehtimolliligi kam bo'lganligi sababli, tuproq ustki qatlamida yirik chang fraksiyalari 37,2 % ni tashkil qilgan bo'lsa, janubiy qiyalikda tarqalgan tuproqlarda 43,6 % va shimoliy qiyalikda 47,8 % oraliqida, yuvilib to'plangan tuproqlarda esa bu fraksiyalar miqdori 36,2 % atrofida bo'lishi kuzatilgan (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot obyekti to'q tusli bo'z tuproqlarining mexanik tarkibi

Tadqiqot obyekti tog' jigarrang tuproq tipchalari mexanik tarkibiga ham eroziya jarayonlari ta'sir qilib, qiyalik darajalari va kuchli eroziyalanish hisobiga,

to'q tusli bo'z tuproqlar mexanik tarkibida kuzatilgan o'zgarishlar kabi, mexanik tarkibining yengillashishi aniqlangan.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, tadqiqot obyekti tuproqlarida qiyalik darajalari ortishi va eroziya jarayonlarining rivojlanishi tufayli, to'q tusli bo'z tuproqlarda gumus miqdori 2,62 % dan 1,47 % ga, tog' jigarrang karbonatli tuproqlarda 4,21 % dan 2,91 % ga, tog' jigarrang tipik tuproqlarda 4,57 % dan 3,13 % ga, tog' jigarrang ishqorsizlangan tuproqlarda esa 5,18 % dan 3,52 % ga kamayganligi hamda uglerodni azotga nisbati yuvilib to'plangan tuproqlarda 6,2 – 7,5 ni, eroziyalangan qiyaliklarda esa 6,1 – 7,0 atrofida ekanligi kuzatilgan (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqot obyekti tuproqlarining ayrim kimyoviy ko'rsatkichlari

Kesma №, qiyaligi ° (gradus), ekspozitsiyasi	Chuqurlik, sm	Gumus, %	Umumiy, %			Harakatchan, mg/kg		C:N	pH	CO ₂ karbonatlar, %
			N	P	K	P ₂ O ₅	K ₂ O			
Tog' jigarrang ishqorsizlangan tuproqlar										
K-2, 2°, shimoliy yuvilib to'plangan	0-25	5,18	0,48	0,161	1,859	31,38	316,9	6,2	6,9	1,7
	25-48	3,48	0,33	0,152	1,843	16,28	237,7	6,2	7,0	2,4
	48-71	2,38	0,24	0,149	1,615	9,88	123,3	5,7	8,1	9,6
K-4, 8-9°, janubiy qiyalikning o'rtach qismi	0-20	3,52	0,32	0,154	1,635	14,98	170,1	6,5	6,7	2,4
	20-44	2,42	0,23	0,151	1,503	10,08	169,7	6,2	7,1	2,4
	44-67	1,41	0,14	0,138	1,375	6,18	118,5	6,0	7,6	9,2
	67-95	0,80	0,08	0,128	1,279	4,28	86,9	6,2	7,9	10,3
To'q tusli bo'z tuproqlar										
K-7, 12-13°, janubiy qiyalikning o'rtach qismi	0-12	1,47	0,12	0,140	1,735	7,78	120,9	7,0	7,1	3,4
	12-32	0,97	0,08	0,139	1,639	6,98	116,1	7,0	7,4	4,5
	32-48	0,67	0,06	0,138	1,495	5,48	107,3	6,7	7,0	6,2
	48-64	0,39	0,03	0,126	1,363	4,68	81,7	7,7	7,2	8,7
K-10, 1-2°, shimoliy yuvilib to'plangan	0-25	2,96	0,27	0,154	1,843	22,28	286,1	6,3	7,2	1,5
	25-50	1,86	0,17	0,148	1,747	19,18	183,1	6,3	7,1	2,1
	50-78	1,19	0,11	0,137	1,615	11,08	147,1	6,3	7,0	4,5
	78-110	0,88	0,08	0,125	1,447	3,98	55,1	6,1	7,1	8,9
Tog' jigarrang tipik tuproqlar										
K-17, 14-15°, janubiy qiyalikning o'rtach qismi	0-8	3,13	0,30	0,149	1,830	28,98	243,0	6,1	6,9	1,9
	8-15	2,64	0,25	0,139	1,598	22,88	218,7	6,0	6,9	2,3
	15-32	1,54	0,14	0,132	1,420	16,38	184,8	6,2	7,0	6,8
	32-51	0,58	0,05	0,13	1,317	11,88	146,4	6,7	7,1	8,4
	51-83	0,46	0,04	0,125	1,199	8,68	101,7	6,7	7,1	10,2
K-20, 1-2°, shimoliy yuvilib to'plangan	0-12	4,57	0,43	0,153	1,907	41,38	286,5	6,2	6,9	2,1
	12-23	2,41	0,23	0,15	1,626	24,28	218,9	6,2	6,9	3,8
	23-45	1,37	0,13	0,138	1,498	15,08	209,0	6,1	7,0	6,7
	45-67	0,82	0,08	0,126	1,333	12,88	117,5	6,2	7,1	11,4
Tog' jigarrang karbonatli tuproqlar										
K-22, 1-2°, shimoliy yuvilib to'plangan	0-9	4,21	0,33	0,152	1,259	38,08	395,2	7,5	7,7	9,1
	9-23	2,79	0,22	0,145	1,225	30,58	322,9	7,4	7,9	12,5
	23-42	1,38	0,13	0,138	1,505	14,98	109,4	6,1	7,9	13,3
K-24, 9-11°, janubiy qiyalikning o'rtach qismi	0-9	2,91	0,26	0,143	1,634	16,58	209,5	6,5	7,7	8,3
	9-23	1,24	0,11	0,138	1,460	14,08	143,6	6,4	7,9	9,8
	23-44	0,91	0,08	0,136	1,327	13,18	105,8	6,3	7,8	10,2
	44-67	0,43	0,03	0,124	1,149	9,18	89,4	7,3	8,1	12,1

Tuproq profili bo'ylab, yalpi azot ham gumus miqdori singari o'zgarib, eng maksimal miqdori yuvilib to'plangan tuproqlarning ustki qatlamlarida 0,27 - 0,48 % atrofida to'plansa, eroziyalanish hisobiga janubiy qiyalikda tarqalgan tuproqlarning ustki qatlamlarida esa 0,12 – 0,32 % kamayganligi bilan izohlanadi.

Izlanishlar natijasida, eroziyaga uchragan qiyaliklarda yalpi fosfor miqdorining pasayishi va uning mineral shakllarining ustunligi, tuproqning mexanik tarkibiga bog'liqligi hamda eroziyaga uchramagan tuproqlarning yuqori qatlamlarida yaxshi, quyi qatlamlarda esa kamroq ifodalanganligi aniqlangan. Eroziyalanmagan tuproqlarning yuqori qatlamlarida fosforning yalpi shakllari 0,161 - 0,152 % bo'lsa, eroziyalangan qiyaliklarda uning miqdori 0,140 - 0,154 % ga kamaysa, tuproq profili bo'ylab esa uning miqdori 0,124 - 0,128 % ga kamayganligi kuzatilgan.

Tog' jigarrang tuproqlarini tipchalarga ajratishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu - ustki qatlamlarida karbonatlarni namoyon bo'lishi va joylashish chuqurligidir. Hudud tuproqlari turli darajada eroziyaga uchraganligi bois, karbonatlarning miqdori ustki qatlamlarda 1,7 - 3,4 % atrofida tebranib, ostki qatlamlarga (8,7 – 13,3 %) tomon bu miqdor oshib borishi aniqlangan. Hudud tuproqlari tog' va tog'oldi mintaqasiga mos gips, karbonatlar va suvda oson eruvchi tuzlardan yaxshi yuvilganligi sababli, tuproq eritmasi muhitining pH ko'rsatkichi asosan neytral (7,0) bo'lib, ba'zan 6,7-8,1 atrofida tebranib turishi bilan xarakterlanadi (1-jadval).

Tadqiqot obyekti tuproqlarning eroziya jarayonlariga chidamliligi, tuproq tipi va tipchalariga, tarkibidagi gumus, ozuqa elementlari bilan bir qatorda singdirish sig'imiga bog'liq bo'lib, hudud tuproqlari tarkibida singdirilgan kationlar yig'indisi 16-20 mg-ekv ni tashkil qilgan. Singdirilgan kationlar yig'indisi tarkibining asosiy qismi Ca va Mg bo'lib, kam miqdorda esa K va Na kationlari hissasiga to'g'ri keladi. Profil bo'ylab esa Ca va K kationlari miqdorining oshishi evaziga Mg va Na kationlari miqdorining kamayishi kuzatilgan.

Dissertatsiyaning **“Sun'iy yomg'irlatish modeli sharoitida tuproq eroziyasi rivojlanishiga qiyalik nishabligi va yog'ingarchilik miqdori jadalligi ta'sirini aniqlash”** deb nomlangan to'rtinchi bobida **“Sun'iy yomg'irlatish sharoitida tuproq yuvilishini aniqlash modeli”** uskunasi tuzilishi va ishlash prinsipi, sun'iy yomg'irlatish sharoitida tuproq eroziyasi rivojlanishiga qiyalik nishabligi, yog'ingarchilik miqdori va jadalligi ta'sirini tahlil qilish natijalari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Sun'iy yomg'irlatish sharoitida tuproq yuvilishini aniqlash uchun tuproq tipi, yuvilish darajasiga qarab, tuproq monolitlari tayyorlanib, barcha tajribalar 3 takrorlanishda o'tkazilib, o'rtacha qiymati olingan. Har bir takrorlanishdan oldin filtr qog'ozi massasi o'lchangan va yangilangan. Tajriba takrorligi tugagandan so'ng, filtr qog'ozida ushlab qolingani tuproq qurutilib, uning massasi yana elektron tarozi



2- rasm. **“Tuproq yuvilishini aniqlash modeli” laboratoriya uskunasi**

yordamida o'lcangan. Shundan so'ng, tajriba boshlanishdan oldin o'lcangan filtr qog'oz massasi tajriba yakunlangandan so'ng yuvilgan tuproq va filtr qog'ozning birgalikdagi massasidan ayrilib, yuvilgan tuproqning sof og'irligi topilgan. Tajribalar davomida yomg'ir jadalligi 2, 4 mm/s etib belgilangan va tajriba o'tkazish vaqti 20 minutgacha davom ettirilgan. Tajribalar qiyalik nishabligi 5, 10, 15, 20 graduslarda amalga oshirilgan. Yomg'ir tomchisining tushish balandligi qiyalikga mos ravishda 60 sm dan 1 m gacha balandlikda o'tkazigan (2-rasm).

Kuzatuvlar natijasida, qiyalik nishabligi ortgan sari yuvilgan tuproqning og'irligi ham oshishi kuzatilib, to'q tusli bo'z tuproqlar qiyaliklaridan olingan monolitlarda, yog'ingarchilik jadalligi 2 mm/s, qiyalik nishabligi 5° da 0,5696 t/ga, 10° da 0,7250 t/ga, 15° da 1,0634 t/ga, 20° da esa 1,5741 t/ga, yog'ingarchilik jadalligi 4 mm/s bo'lganda esa 5° da 0,700 t/ga, 10° da 1,0946 t/ga, 15° da 1,4589 t/ga, 20° da esa 1,7705 t/ga tuproq yuvilishi aniqlangan (2-jadval).

2-jadval

Sun'iy yomg'ir latish sharoitida tuproq eroziyasini rivojlanishiga qiyalik nishabligining ta'siri

Monolit raqami	Yog'ingarchilik miqdori jadalligi, mm/s	Yuvilgan tuproq massasi, t/ga			
		Qiyalik A-5°	Qiyalik B-10°	Qiyalik C-15°	Qiyalik D-20°
To'q tusli bo'z tuproqlar					
M-1.I	2/20	0,3982	0,6571	0,8241	1,4089
M-1.II		0,5241	0,6679	0,9268	1,4607
M-1.III		0,5696	0,7250	1,0634	1,5741
M-2.I	4/20	0,5188	0,8866	1,2830	1,5295
M-2.II		0,5464	0,9330	1,3313	1,5411
M-2.III		0,7000	1,0946	1,4589	1,7705
Tog' jigarrang karbonatli tuproqlar					
M-3.I	2/20	0,4563	0,6625	0,8804	1,3000
M-3.II		0,4696	0,6795	0,9393	1,3509
M-3.III		0,5750	0,7884	1,1375	1,5813
M-4.I	4/20	0,5473	0,8670	1,2098	1,5366
M-4.II		0,5768	0,8875	1,2688	1,6223
M-4.III		0,6946	0,9929	1,4839	1,8134
Tog' jigarrang tipik tuproqlar					
M-5.I	2/20	0,4214	0,5821	0,8670	1,1768
M-5.II		0,4384	0,6036	0,9232	1,3188
M-5.III		0,5420	0,7295	1,0920	1,4536
M-6.I	4/20	0,4839	0,6500	0,9205	1,2018
M-6.II		0,5036	0,6982	0,9705	1,2661
M-6.III		0,6107	0,8536	1,0902	1,4036
Tog' jigarrang ishqorsizlangan tuproqlar					
M-7.I	2/20	0,3714	0,5232	0,7330	1,1196
M-7.II		0,3830	0,5571	0,7920	1,2027
M-7.III		0,5116	0,6402	0,9384	1,3714
M-8.I	4/20	0,4839	0,6500	0,9205	1,2018
M-8.II		0,5036	0,6982	0,9705	1,2661
M-8.III		0,6107	0,8536	1,0902	1,4036

Xuddi shu qonuniyat tog' jigarrang tuproqlarining barcha tipchalarida ham kuzatilib, qiyalik nishabliklari o'zgarishi bilan yuvilayotgan tuproq massasi tog' jigarrang karbonatli tuproqlarida tog' jigarrang tipik tuproqlariga, tog' jigarrang tipik tuproqlarida esa tog' jigarrang ishqorsizlangan tuproqlariga nisbatan ko'p bo'lishi aniqlangan. Masalan, yog'ingarchilik jadalligi 2 mm/s, qiyalik nishabligi 5° bo'lganda tog' jigarrang karbonatli tuproqlarda 0,5990 t/ga, tog' jigarrang tipik tuproqlarda 0,5420 t/ga, tog' jigarrang ishqorsizlangan tuproqlarda esa 0,5116 t/ga tuproq yuvilganligi, 20° qiyalikda, M-3.III da - 1,5813 t/ga, M-5.III da 1,4536 t/ga, M-7.III da esa 1,3714 t/ga tuproq yuvilishi aniqlangan (2-jadval).

To'q tusli bo'z tuproqlarda qiyalik nishabligi 5°, yomg'ingarchilik davomiyliligi 20 minut, jadalligi 2 mm/s da o'tkazilgan tajribalarda, tuproqning yuvilish vaqti 5 minut 08 sekunddan boshlanib, tuproq monoliti profilining suv o'tish va namlanish chuqurligi 41 mm ni tashkil qilgan. Natijada, 0,3982 t/ga hisobida tuproq yuvilishi kuzatilgan. Shu yog'ingarchilik miqdori saqlanib, qiyalik nishabligi 10°, 15°, 20° ga o'zgartirilganda, tuproqning yuvilishi boshlanish vaqti kamayganligi va yuvilayotgan tuproq massasi ortganligi kuzatilgan (3-jadval).

3-jadval


Sun'iy yomg'irnatish sharoitida eroziya rivojlanishiga yog'ingarchilik miqdori jadalligi ta'siri (to'q tusli bo'z tuproqlar)

Monolit raqami	Tuproq yuvilishi boshlanish vaqti, min/sek	Tuproq profili namlanish chuqurligi, mm	Yuvilgan tuproq massasi	
			gr	t/ga
Sun'iy yomg'irnatish sharoitida yog'ingarchilik miqdori, 2/20 mm/s				
M-1.I-A	5,08	41	4,46	0,3982
M-1.II-A	5,06	41	5,87	0,5241
M-1.III-A	5,0	41	6,38	0,5696
M-1.I-B	4,41	38	7,36	0,6571
M-1.II-B	4,38	38	7,48	0,6679
M-1.III-B	4,35	37	8,12	0,7250
M-1.I-C	4,15	32	9,23	0,8241
M-1.II-C	4,13	32	10,38	0,9268
M-1.III-C	4,09	30	11,91	1,0634
M-1.I-D	3,42	26	15,78	1,4089
M-1.II-D	3,39	25	16,36	1,4607
M-1.III-D	3,37	24	17,63	1,5741
Sun'iy yomg'irnatish sharoitida yog'ingarchilik miqdori, 4/20 mm/s				
M-2.I-A	4,48	38	5,81	0,5188
M-2.II-A	4,42	38	6,12	0,5464
M-2.III-A	4,31	37	7,84	0,7000
M-2.I-B	4,28	39	7,42	0,6625
M-2.II-B	4,13	38	7,61	0,6795
M-2.III-B	4,03	36	8,83	0,7884
M-2.I-C	3,54	34	9,86	0,8804
M-2.II-C	3,48	32	10,52	0,9393
M-2.III-C	3,42	31	12,74	1,1375
M-2.I-D	3,34	29	14,56	1,3000
M-2.II-D	3,27	27	15,13	1,3509
M-2.III-D	3,16	26	17,71	1,5813

Olingan ma'lumotlar asosida, yog'ingarchilik miqdori va qiyalik nisbahliligining ortishi bilan yuvilgan tuproq massasi ko'payishi barobarida uning agrokimyoviy hamda mexanik tarkibining ham o'zgarishiga olib kelishi xulosalangan.

Dissertatsiyaning "Relyefning raqamli modeli asosida tuproq eroziyasi rivojlanishiga qiyalikning morfometrik xususiyatlari ta'sirini aniqlash va kartografik modellar yaratish" nomli beshinchi bobida GNSS uskunasi yordamida tayanch nuqtalarning koordinatlarini aniqlash, tadqiqot obyekti relyefining raqamli modeli (RRM) va yuzani tahlil qilish orqali balandlik, qiyalik nisbahliligi va ekspozitsiyalariga ko'ra kartografik modellarini yaratish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot obyekti RRM ni yaratish uchun rastr ko'rinishga ega bo'lgan SRTM modellaridan foydalanilgan. Ushbu rastr tasvirining har bir pikselida maydon balandligi va relyef qiyaliklariga ega bo'lgan birlamchi ma'lumotlar mavjud. Masofadan olingan SRTM tasvirini qayta ishlash natijalariga ko'ra, tadqiqot obyektida tarqalgan tuproqlarning balandlik kartografik modellari yaratilgan.


Tadqiqot hududi tuproqlarining vertikal mintaqalanish qonuniyatlariga asosan, ajratilgan balandlik shkalasiga ko'ra obyekt relyefi 7 sinfga ajratilgan. Shunga ko'ra, 1-sinf dengiz sathidan 900-1150 metr balandlikda - to'q tusli bo'z tuproqlar; 2-sinf 1150-1600 metr balandlikda - tog' jigarrang karbonatli tuproqlar; 3-sinf 1600 - 1850 metr balandlikda - tog' jigarrang tipik tuproqlar; 4-sinf 1850-2400 metr balandlikda - tog' jigarrang ishqorsizlangan tuproqlar; 5-sinf 2400-2900 metr balandlikda - qo'ng'ir tusli tuproqlar; 6-sinf 2900-3300 metr balandlikda - mavsumiy qorliklar va 7-sinf 3300 metrdan balandlikda - doimiy qorliklar zonasiga ajratilgan (3 - rasm).



3 - rasm. Tadqiqot obyekti tuproqlarining vertikal mintaqalanishiga ko'ra tarqalishi kartografik modeli

Tadqiqot obyekti relyefining raqamli modeli asosida qiyalikning ekspozitsiyasi, nishabligini aniqlashda ArcGIS dasturi ArcMap panelining “Surface”, “Aspect”, “Slope” kabi instrumentlaridan foydalanilgan holda amalga oshirilgan. “Aspect” instrumenti o‘lchovi 3×3 bo‘lgan katakchalarda “harakatlanuvchi oyna” usulidan foydalanib, relyefning rastr yuzasidan ekspozitsiyani yaratish imkoniyatiga ega.


Olingan natijalar relyefning raqamli modelida elementar qiyaliklarning ham orientatsiyasini tasniflaydi. O‘lchovlar soat strelkasi yo‘nalishiga mos aylanma graduslarda, ya‘ni 0° dan (shimol) 360° gacha (yana shimol) amalga oshirilgan. Sirtning yuzasida to‘g‘ri kelgan har bir qiymatda qiyalikning kodlangan orientatsiyasi (ekspozitsiyasi) beriladi. Hisoblashlar davomida qiyalik ekspozitsiya gradatsiyalari va zapt etgan maydonlariga ko‘ra, quyidagicha joylashganligi aniqlangan: shimoliy ekspozitsiya - 40377 ga, shimoli-sharqiy ekspozitsiya - 37320 ga, sharqiy ekspozitsiya - 47440 ga, janubi-sharqiy ekspozitsiya - 58735 ga, janubiy ekspozitsiya – 61326 ga, janubi-g‘arbiy ekspozitsiya - 45661 ga, g‘arbiy ekspozitsiya - 44833 ga, shimoli-g‘arbiy ekspozitsiya – 49456 ga ni tashkil qilgan. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, eroziyalanish xavfi bor hududlar janubiy, janubi-sharqiy va janubi-g‘arbiy ekspozitsiyada joylashgan yerlar bo‘lib, ular tadqiqot obyektining 43 % ini tashkil qilishi aniqlangan (4 - rasm).



4 - rasm. Tadqiqot obyektining qutblarga nisbatan (qiyalik ekspozitsiyasi) joylashish kartografik modeli

Qiyalik nishabligini aniqlash uchun “Slope” instrumenti rastrdagi aniq bir katakchani qo‘shni katakcha bilan Z qiymatini maksimal o‘zgarish tezligini hisoblashga mo‘ljallangan. Hisoblash algoritmi “Aspect” instrumentining hisoblash

prinsipiga o'xshash. Xisoblashlar davomida quyidagilar aniqlangan: 0-3° gacha qiyaliklar 23539,45 ga, 3-5° nishablikga ega qiyaliklar - 29953,52 ga, 5-10° - 84676,26 ga, 10-15° - 80344,75 ga, 15-20° - 61306,08 ga, 20° dan yuqori qiyaliklar - 105324,22 ga ni tashkil qilgan (5 - rasm).



5 - rasm. Tadqiqot obyekti relyefining qiyalik nishabligi darajasiga ko'ra kartografik modeli

Tadqiqotlar davomida dala-tadqiqot, laboratoriya, geoaxborot tizimlari tahlili asosida yaratilgan kartografik modellar va sun'iy yomg'ir o'qirish modeli sharoitida o'tkazilgan tajribalar natijasida, tadqiqot obyekti hududida kechayotgan eroziya jarayonlarini baholashda "Tadqiqot hududi tuproqlarining eroziyalanish darajasiga ko'ra baholash mezonlari" ishlab chiqilgan. Tadqiqot hududida kechayotgan eroziya jarayonlarini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar inobatga olingan: eroziyalanish darajasiga ko'ra jadalligi, gradus hisobida - qiyalik darajasi, eroziyalanish tufayli tuproqlarning mexanik tarkibida kechayotgan o'zgarishlar hisobiga - tuproqning granulometrik tarkibi, turli darajadagi yog'ingarchilik ta'siri - 2 va 4 mm/s yomg'ir jadalligida yuvilgan tuproq massasi t/ga hisobida, turli darajada eroziyalangan yerlarning maydonlari, tuproq yuvilishi va qiyaligiga ko'ra yer toifalari va hududda kechayotgan eroziya jarayonlarining oldini olishga qaratilgan takliflar kiritilgan.

Ishlab chiqilgan, eroziya jarayonlarini baholash mezonlariga ko'ra, qiyalik nishabligi 0-3° gacha eroziyalanish darajasi sezilsiz bo'lgan yerlar umumiy maydonning 6,1 % ni, qiyalik nishabligi 3-5° gacha kuchsiz eroziyalangan yerlar 7,7 % ni, qiyalik nishabligi 5-10° gacha o'rtacha eroziyalangan yerlar 22,0 % ni, qiyalik nishabligi 10-15° gacha kuchli eroziyalangan yerlar 20,9 % ni, qiyalik nishabligi 15° dan yuqori juda kuchli eroziyalangan yerlar 43,3 % ni tashkil qilishi aniqlangan (4-jadval).

Tadqiqot hududi tuproqlarining eroziyalanish darajasiga ko'ra baholash mezonlari

Eroziyalanish darajasiga ko'ra jadalligi	Qiyalik nisabligi, (°)	Tuproqning granulometrik tarkibi	Tuproq yuvilish massasi, yomg'ir jadalligiga ko'ra, (t/ga)		Maydoni		Tuproq yuvilish va qiyalligiga ko'ra yer toifalari	Taktiflar
			2 mm/min	4 mm/min	ga	%		
Sezilsiz	0-3	og'ir	0,27<	0,31<	23539,45	6,1	Amaldagi ishlov berish usullaridan foydalanish	Taktiflar
		og'ir - o'rta	0,29<	0,34<				
		o'rta	0,37<	0,41<				
Kuchsiz	3-5	og'ir	0,41<	0,48<	29953,52	7,7	Qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqli yerlar	Yuza oqimini boshqarish uchun yerlarni diagonal usulda atvolsiz plug bilan xaydash va o'simliklarni egat ichiga ekish, ihotazorlar yaratish, ko'p yillik o'tlar bilan almashlab ekish tizimini joriy etish
		og'ir - o'rta	0,45<	0,51<				
		o'rta	0,55<	0,62<				
O'rtacha	5-10	o'rta - og'ir	0,60<	0,76<	84676,26	22,0	Ishlov berish imkoniyati chegaralangan yerlar	Yerlarni ko'ndalang va yarimoy terassalash, ihotalash, bog'zorlar va uzumzorlar yaratish, ko'p yillik (popuk ildizli) o'simliklar ekish
		o'rta	0,66<	0,82<				
		o'rta - yengil	0,73<	0,95<				
Kuchli	10-15	o'rta - og'ir	0,83<	1,08<	80344,75	20,9	Ishlov berish noqulay, foydalanish imkoniyati cheklangan yerlar	Suv yig'uvchi bufer zona (ravza) lar yaratish, gorizonta terassalash, gidrotexnik tadbirlar qo'llash, suv ob'ektlari bo'ylarida o'tzorlar barpo etish, rejali mol boqish uchun o'tloq va pichanzorlar sifatida foydalanish, hududga mos o'rmonzorlashtirish tadbirlarini doimiy olib borish
		o'rta - yengil	1,06<	1,28<				
		o'rta	1,25<	1,36<				
Juda kuchli	15-20<	o'rta - yengil	1,33<	1,42<	133360,3	43,3		
		o'rta	1,50<	1,80<				
		yengil						

Tadqiqotlar davomida olingan natijalardan tabiiy omillar ta'sirida tog' va tog'oldi hududi tuproqlarida kechayotgan eroziya jarayonlarini zamonaviy yondashuvlar asosida baholash, ularni oldini olish va muhofazashga qaratilgan chora-tadbirlar hamda tog' va tog'oldi yerlarini elektron monitoring qilish tizimlarini ishlab chiqishda mazkur dissertatsiya ishi natijalaridan foydalanish mumkinligi to'g'risida tavsiyalar berilgan.

XULOSALAR

1. GAT texnologiyalari asosida tadqiqot obyekti SRTM tasvirlariga ishlov berish natijasida hududda tarqalgan tuproqlarning vertikal mintaqalanishi va ularning egallagan maydonlari quyidagicha ekanligi aniqlandi: to'q tusli bo'z tuproqlar dengiz sathidan 900 - 1150 metr balandlikda 106312,23 ga ni, tog' jigarrang karbonatli tuproqlar 1150 -1600 metr balandlikda 91881,85 ga ni, tog' jigarrang tipik tuproqlar 1600 - 1850 metr balandlikda 72988 ga ni, tog' jigarrang ishqorsizlangan tuproqlar esa 1850 - 2400 metr balandlikda 57603,2 ga ni tashkil etishi bilan izohlandi.

2. Tadqiqot obyekti tuproqlari mexanik tarkibiga ko'ra, og'ir, o'rta ba'zan yengil qumoqli bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bunga sabab, tuproqlar qiyalikning turli elementlarida tarqalganligi hamda turli darajada eroziyalanganligi bilan izohlanadi. Hududning tekis suv ayirg'ich va yuvilib to'plangan qismida tarqalgan tuproqlarda asosan og'ir qumoqli, qiyalik nishabligi yuqori bo'lgan yonbag'irlarda esa o'rta va yengil qumoqli bo'lishi bilan bir qatorda tog'li hududlarda tarqalgan tuproqlarda "gillanish" hamda eroziya jarayonlari tufayli yuvilishi natijasida yuqorigi qatlamlarda mexanik tarkibining yengillashishi kuzatildi.

3. Qiyalik elementi va eroziyalanganlik darajasi ta'sirida hudud tuproqlari tarkibidagi gumus va ozuqa elementlari miqdorining o'zgarishiga ko'ra tuproqlarni quyidagicha joylashtirish mumkin (to'q tusli bo'z tuproqlar misolida); yuvilib to'plangan tuproqlar - gumus 2,96%, N 0,27%, P 0,154%, K 1,843%, yuvilmagan (suv ayirg'ich) tuproqlarda - gumus 2,62%, N - 0,23%, P - 0,153%, K - 1,876%, eroziyalangan shimoliy qiyaliklarda - gumus 1,72%, N - 0,16%, P - 0,139%, K - 1,819 %, eroziyalangan janubiy qiyaliklarda - gumus 1,47%, N - 0,12%, P - 0,140%, K - 1,735% ni tashkil etib, bu qonuniyat tog' jigarrang tuproqlarda ham o'z aksini topadi. Tadqiqot obyekti tuproqlarida gumus va oziqa elementlari miqdoriga ko'ra, to'q tusli bo'z tuproqlardan tog' jigarrang ishqorsizlangan tuproqlari tomon ortishi kuzatiladi. Tuproq tarkibidagi karbonatlar miqdori va profil bo'ylab joylashish chuqurligi ham eroziya jarayonlariga bog'liqdir. Masalan, eroziyaga uchramagan to'q tusli bo'z tuproqlarda profil bo'ylab 1,1 dan 6,7% gacha, eroziyaga uchragan tuproqlarda 1,9% dan 8,3% gacha, yuvilib to'plangan tuproqlarda bu miqdor 3,2% dan 9,2% gacha bo'lib, pastki qatlamlarga yuvilib to'planganligi kuzatiladi. Hudud tuproqlari o'rtacha singdirish sig'imiga ega bo'lib, yuqori qatlamlarda uning yig'indisi 16-20 mg-ekv ni tashkil etadi. Singdirish kompleksi asosan Ca^{2+} va Mg^{2+} lari bilan o'rtacha, K^+ va Na^+ lari bilan esa kam miqdorda ta'minlangan bo'lib, tuproqlarning turli yuvilish va qiyalik nishabliklarida joylashishiga ko'ra, Ca^{2+} va K^+ larining kamayib, Na^+ va Mg^{2+} miqdorining esa ortib borishi aniqlandi.

4. Sun'iy yomg'irlatish sharoitida tajribalar tuproq yuvilishini aniqlash uchun tayyorlangan tuproq monolitlaridan yomg'ir jadalligi 2, 4 mm/s, tajriba o'tkazish vaqti 20 minut, qiyalik darajalari 5, 10, 15, 20° larda o'tkazilgan bo'lib, to'q tusli bo'z tuproqlarda yomg'ir jadalligi 2 mm, qiyaligi 5° bo'lganda 0,5696 t/ga, 10° da 0,7250 t/ga, 15° da 1,0634 t/ga, 20° da esa 1,5741 t/ga tuproq yuvilishi kuzatiladi. Yog'ingarchilik jadalligi 4 mm/s ga oshirilganda esa ushbu qiymatlar 5° da 0,700 t/ga, 10° da 1,0946 t/ga, 15° da 1,4589 t/ga, 20° da esa 1,7705 t/ga bo'lgani va bu qonuniyat tog' jigarrang tuproqlarida ham saqlanishi kuzatildi.

5. Sun'iy yomg'irlatish sharoitida tuproqlarni turli nishablikda yuvilish vaqtini aniqlash natijalar shuni ko'rsatdiki, masalan to'q tusli bo'z tuproqlarda qiyalik nishabligi 5°, yomg'ir jadalligi 2 mm/s bo'lganda tuproqni yuvilishi 5 minut 08 sekunddan boshlanib, tuproq monoliti profilining suv o'tish va namlanish chuqurligi 41 mm tashkil qilgan, yuvilgan tuproq massasining miqdori 0,3982 t/ga hosil qiladi. yog'ingarchilik miqdori saqlanib, lekin qiyalik nishabligi 10°, 15°, 20° bo'lganda, tuproq yuvilishi boshlanish vaqti va namlanish chuqurligi kamayib, yuvilayotgan tuproq massasi (0,7250, 0,1,0634 va 1,5741 t/ga) ortishi kuzatildi.

6. Yaratilgan hudud RRM tahlili asosida hududda kuchli eroziyalanishga xavfli yerlar asosan, janubiy, janubiy-sharqiy va janubiy-g'arbiy ekspozitsiyalarda joylashgan bo'lib, umumiy hududning 43 % ini, qiyalik darajasi 5° dan yuqori bo'lgan yerlar esa 86.2 % ini tashkil qiladi. Ishlab chiqilgan "Tadqiqot hududi tuproqlarining eroziyalanish xavfliligiga ko'ra baholash mezonlari" asosida tadqiqot obyekti eroziyalanish va qiyalik darajasiga ko'ra 5, tuproq yuvilishi va qiyaligiga ko'ra yerlar esa 3 toifaga ajratilib, eroziyalanganlik darajasiga qarab, yerlardan samarali foydalanish va eroziya jarayonlarini oldini olishga qaratilgan tegishli takliflar keltirib o'tildi.

7. Tadqiqot obyekti relyefining morfometrik xususiyatlarini tavsiflovchi uch o'lchamli TIN modeli va u asosida yaratilgan kartografik modellar hududning tog' va tog'oldi tuproqlarida kechuvchi eroziya jarayonlarini aniqlash, eroziyaga moyil hududlarni baholash, eroziyaga uchragan tuproqlarning holatini yaxshilash va muhofazalash, tuproq eroziyasi bo'yicha elektron monitoring tizimini yaratish uchun tavsiya etildi.

8. GNSS uskunasi yordamida belgilangan tayanch nuqtalardagi tuproq kesmalarining morfogenetik xususiyatlari keltirilgan atributiv ma'lumotlar bazasi tuproqlar klassifikatsiyasi va tasnifini mukammallashtirish, geografik qonuniyat-larga aniqlik kiritish, GAT tizimlari asosida qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilishning takomillashgan mexanizmini ishlab chiqish uchun tavsiya etildi.

9. "Boysun tumani tog'li hududlarda tuproq eroziyasini keltirib chiqaruvchi omillarning diagnostik belgilari" nomli dasturiy ta'minoti tuproq axborot tizimlari ma'lumotlar bazasini shakllantirish uchun tavsiya etildi.

10. "Sun'iy yomg'irlatish sharoitida tuproq yuvilishini aniqlash modeli" laboratoriya uskunasi yordamida talabalar, ilmiy xodimlar va turli yerdan foydalanuvchilar uchun tuproq eroziyasi jarayonlari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar olish uchun tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

НУРУЛЛАЕВ АЗАМХОН КОМИЛЖОН УГЛИ

**ОЦЕНКА СОСТОЯНИЯ ЭРОДИРОВАННЫХ ПОЧВ ГОРНЫХ И
ПРЕДГОРНЫХ ТЕРРИТОРИЙ НА ОСНОВЕ ГИС ТЕХНОЛОГИЙ
(на примере почв Байсунского района)**

03.00.13 – Почвоведение

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2023.4.PhD/В1070.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека (НУУз).

Автореферат диссертации доктора философии (PhD размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного Совета по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана по адресу: pauka@nuu.uz и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziyo.net.

Научный руководитель:	Джалилова Гулнора Тулкуновна доктор биологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Рузметов Максуд Исмонлович доктор сельскохозяйственных наук, профессор Хакбердиев Обид Эшннйёзович кандидат биологических наук, доцент
Ведущая организация:	Ташкентский государственный аграрный университет


Защита диссертации состоится «20» 05 2024 года в 10:30 часов на заседании Научного совета PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г.Ташкент, Алмазарский район, Студенческий городок, ул. Университетская, 4, Биологического факультета Национального университета Узбекистана 4-этаж, 403-комнатаю Тел: (+99871) 227-12-24; факс: (+99871) 246-53-21, 246-02-24 e-mail: pauka@nuu.uz).

С данной диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Национальном университете Узбекистана (зарегистрирована № 35). (Адрес: 100174, г.Ташкент, Алмазарский район, Студенческий городок, ул. Университетская, 4. Тел: (+99871) 227-12-24.

Автореферат диссертации разослан «29» 04 2024 г.
(реестр протокола рассылки № 2 от «29» 04 2024 г.)




Жаббаров З.А.
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор


Махкамова Д.Ю.
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.б.н., доцент


Набиева Г.М.
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.б.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в мире в условиях глобального изменения климата природные и антропогенные воздействия на почвенный покров усиливаются, а деградация, в том числе виды эрозии почв и её последствия, являются толчком к более быстрому развитию. По данным международной организации ФАО, к 2050 году эрозия почв может сократить производство сельскохозяйственных культур на 10% и привести к потере 75 миллиардов тонн почвы¹. Происхождение этих проблем зависит от влияния природных условий (климата, геоморфологии, почвообразующих пород) и антропогенных факторов. Риск эрозии оценивается по объему потенциального смыва почв. Геоморфологический фактор во многом определяет скорость эрозии, поскольку он связан со скоростью и силой водных потоков, их концентрацией на определенных участках и неровностями местности. Климатический фактор напрямую влияет на эрозионные процессы через количество осадков и характер их выпадения. Поэтому поиск и внедрение новых методов мониторинга и оценки подверженности почв к эрозионным процессам считаются актуальными задачами.

